

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institute

**“Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida “Avesto” g'oyalarining tutgan o'rni”
mavzusidagi**

РЕФЕРАТ

Bagardi: Masharipova G.K.

Toshkent- 2015

Mundarija:

Kirish.

1. Xalqimiz tarixida ilk yozma manba «Avesto»da ezgulik va yovuzlik g'oyalari va ularning mohiyati.

2. Milliy va umumbashariy g'oyalar va ularni targ'ib etishda Zardushtiy ta'limotining asosiy qoidalari.

3. Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida ilk yozma manba «Avesto» g'oyalarining tutgan o'rni.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishish, ajdodlarimizning boy milliy-ma'naviy merosini tiklash, milliy-ma'naviyatimizni yuksaltirish doimo xalqimizning asriy orzularidan biri bo'lib kelgan. Qadimgi tariximiz, bobokalonlarimiz yashagan yurtda kechgan ijtimoiy, madaniy hayot, odamlar turmush tarzi va dunyoqarashi, ma'naviy jarayon tamoyillari haqida mustaqillikka erishguncha juda ko'p, taxminiy, soxta va g'ayriilmiy gaplar aytilar, faqat arxeologlarning oz bo'lsa-da, inkor etib bo'lmas darajadagi tarixiy, xotiramizga yangilik kirituvchi topilmalargina ko'ngilga taskin berib, o'tmish davrlarning qorong'u sahifalarini yorita boshladi.

Prezident I.A.Karimovning «Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch» asarida birinchi navbatda mintaq xalqlarining eng qadimgi yozma merosi “Avesto” tilga olinadi¹. Ushbu bebaho ma'naviy obidada “borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilganligi” ta'kid etiladi. Ayniqsa, undagi ulug' axloqiy tamoyil “ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” birligi bugungi kunimizda ham ma'naviy ahamiyatini to'liq saqlab kelayotganligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ma'lumki, yurtimizdagi bizga ma'lum ilk shakllangan yaxlit ma'naviyat tizimi “Avesto” kitobida o'z aksini topgan. Bu kitob mustaqillik sharofati bilan hozirgi o'zbek tiliga to'liq tarjima qilinib nashr etildi. Bir paytlar bu kitob muqaddas “mazdayasna” diniga asos bo'lgan bo'lsa, bugun biz unga yirik adabiy yodgorlik sifatida qaraymiz. “Avesto” matnlari shakllangan, yig'ilgan va qayta yig'ilgan davrlar asotir tafakkur davri bo'lgani sababli bu kitobda bayon etilgan ma'naviy qadriyatlar tizimi keyinchalik boshqa yurtlarga tarqalib, turli siyosiy, g'oyaviy ta'sirlar ostida ko'p joylarida mushriklik aqidalari bilan chalkashib ketdi. Masalan, Zardusht gohlarida tilga olingan 7 amshosipandlar mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, qadim avesto tilida Spinta Maynyu (Sipand Miynu) - “tafakkur olami”, Ashah Vahishta (Ardabehesht) – “go'zal haqiqat”, “mukammal nizom”,

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008, 23-bet.

Vuhuvmana (Bahman)– “ezgu niyat”, Spinta Ormaitiy (Ispandormaz) - “komil aql”, Zashra Vayrayah (Shahriyor)– “umid dunyosi”, Amirmitota (Amurdod) – “umrboqiylik”, “abadiyat”, Xavrvatot (Xo’rdod) – “komillik”, “to’g’rilik” ma’nolarini anglatib kelgan. Keyinchalik kohinlar talqinida bularning har biri ilohiy xilqat sifatida tasavvur qilinib, ularga sig’inish qoidaga aylangan, ya’ni Zardusht da’vatidagi yagona Parvardigor - Axura Mazda (ilohiy bilim egasi, ma’nosida)ga e’tiqod qilish o’rniga yuqoridagi kabi ma’naviy qadriyatlarni ilohlar, ya’ni sig’inish ob’ektlariga aylantirish holati yuz bergan.

«Avesto»da odamninggina emas, balki bir hovuch, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. «Avesto» erning, daryolaru bog’lar, tog’laru buloqlar, ko’lu, sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o’simligu giyohlar, shahar va manzilgohlarning bunyod etish tarixiga doir asar. «Avesto» asari va uni milliy-ma’naviy tiklanish jarayonida tutgan o’rnini har tomonlama o’rganish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Mavzuning o’rganilishi darajasi: Zardushtiylik ta’limoti barcha dinlar singari avval og’zaki tarzda paydo bo’lib, keyinchalik xatga tushgan. Ehtimol, zardushtiylik dinining asoschisi Sipiymon Zardusht ham o’zi yaratgan ta’limotining yozma shaklga keltirilib, tarqaligini tasavvur qilmaganlar. Olimlarning tarixiy manbalar ustida turli davrlarda olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, qadimgi Xuroson, Fors, Iroq, Mo’g’ul, Balxdan tortib, Suriya, Xitoy, Rum, Turfon, Habashiston va Hindiston kabi davlatlar hududida keng tarqalgan bu ta’limot dastlab kohinlar tomonidan yod olingan va og’izdan-og’izga o’tib yurgan.

Zardushtiylik ta’limotining Hindistonda ham keng yoyilganligi undagi «vid» hindcha «ved», «dev» - «deva» kabi so’zlarning ohangdosh va ma’nodosh ekanligida ham ko’rinadi.

V.A.Livshits yozishicha, ruhoniylar Zardusht eng qadimgi diniy tasavvurlarni isloh qilgan shaxs sifatida maydonga chiqadi. Uning yashagan payti, vatani va

qaerlarda o'z ta'limotini targ'ib qilgani munozarali bo'lsa-da, uning afsonaviy shaxs emas, real inson bo'lganligiga shubha yo'q¹.

«Avesto» haqidagi ma'lumotlar S.P.Tolstov, G.A.Pugachenkova, V.M.Masson, E.V.Rtveladze, A.Sagdullaev va boshqa olimlarning arxeologik topilmalarida o'z ifodasini topgan.

Mustaqil ishini o'rganishning maqsadi:

“Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida “Avesto” g'oyalarining tutgan o'rnini” mavzusini yoritish, Zardushtiy ta'limotidagi asosiy qoidalarni talabalar ongiga singdirish va bugungi kunda ahamiyatini yoritishdan iborat.

Mustaqil ishini o'rganishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Xalqimiz tarixida ilk yozma manba «Avesto»da ezgulik va yovuzlik g'oyalari va ularning mohiyatini ochib berish;
- Milliy va umumbashariy g'oyalar va ularni targ'ib etishda Zardushtiy ta'limotining asosiy qoidalarini o'rganish;
- Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida ilk yozma manba «Avesto» g'oyalarining tutgan o'rnini yoritishdan iborat.

Mustaqil ishining ilmiy yangiligi. Ushbu mustaqil ishini yoritish jarayonida Zardushtiy ta'limotida ilgari surilgan milliy va umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarni o'rganish hamda uning milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida “Avesto” g'oyalarini tutgan o'rniga oid ma'lumotlar to'lig'icha o'rganildi.

Mustaqil ishining nazariy asoslari. Mustaqil ishining nazariy asosi bo'lib, “Avesto” asarida ilgari surilgan milliy va umuminsoniy tamoyillar va qadriyatlarni ifodalovchi boy ma'naviy meros haqida yoritilgan g'oyalari ishning nazariy asosini tashkil etadi.

Mustaqil ishining ob'ekti. “Avesto” asarida ilgari surilgan milliy va umumbashariy tamoyillarning asosini ifodalovchi ma'naviy meros, bu ma'naviy merosning milliy-ma'naviy tiklanish jarayoniga ta'siri mustaqil ishining ob'ektini tashkil etadi.

¹ Лившиц В.А. Предисловие. «Адиб», 1990, 3-бет.

Mustaqil ishining predmeti. “Avesto” asarida ilgari surilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog’liq bo’lgan bilimlarni yoshlarimiz ongiga singdirish va o’quvchilarni ma’naviy merosga sodiqlik ruhida tarbiyalash muammosini tashkil etadi.

Mustaqil ishining ilmiy ahamiyati. Ushbu mavzu bilan qiziquvchilarga, faylasuflar, tarixchilar va milliy g’oya va ma’naviyat targ’iboti bilan shug’ullanuvchilarga tavsiya etiladi.

1. Xalqimiz tarixida ilk yozma manba «Avesto»da ezgulik va yovuzlik g’oyalari va ularning mohiyati

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Avesto”ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “Ezgu fikr, ezgu so’z, ezgu amal» degan tamoyilini oladigan bo’lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo’lgan saboqlar borligini ko’rish mumkin...”¹. Zardushtiylik ta’limoti O’rta Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo’lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e’tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik ta’limotdir. U behuda qon to’kuvchi qurbonliklar, harbiy to’qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o’troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqkkonchilik, chorvachilik bilan shug’ullanishga da’vat etadi. Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi.

Avesto zardushtiyliknig asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. Avesto O’rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy- iqtisodiy hayoti, diniy qarashlar, olam to’g’risidagi tasvvurlari, urf-odatlar, ma’naviy madaniyatini o’rganishda muhim va yagona manbadir. Uning tarkibidagi materiallar qariyb 2 ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og’zaki ravishda ko’chib borgan.

¹Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008, 31-32-betlar.

Insonning jismoniy va ma'naviy pokligi zardushtiylik axloqining eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish ta'qiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta'limotidan ko'rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo'l qo'ymaganlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo'lishi kerakligi, u erga mevali daraxt o'tqazish, o'stirish mumkin emasligi, archa, qayrag'och kabi mevasiz daraxt o'stirish kerakligi ta'kidlanadi.

«Avesto»da aholining ko'payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog'lab yurish buyurilgan.

Ko'rinadiki, O'rta Osiyoda keng tarqalgan qadimiy Zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga katta ahamiyat berilgan.

«Avesto»da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi Ilon va jom berilgan. Demak, tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma'naviyatimiz qadimiyligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. «Avesto»da ma'rifatga, ilm va hunarni boshqalarga o'rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib etishishida ajdodlarimizning necha ming yillik ma'naviy merosi izlari o'z aksini topgan. Unda johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi yomon xislatlar qoralanadi. Sof ko'ngilli bo'lish, hiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haqorat qilmaslik kabi ma'naviy xislatlar targ'ib etiladi.

«Avesto» asarida insonning barkamol bo'lib etishishida uning so'zi, fikri hamda ishi bir bo'lishiga katta e'tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan desak,

xato qilmagan bo'lamiz. Zero, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muqaddas ma'naviy merosi bo'lib qoldi.

Eramizdan avvalgi minginchi yillarning o'rtalarida eng qadimgi ajdodlarimiz tomonidan qahramonlik mavzusida juda ko'p afsona va rivoyatlar aytilgan bo'lib, ular avloddan-avlodga o'tib borgan. Agar ushbu afsonalar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» asari mundarijasidan o'rin olmaganda edi, biz ular haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lolmay qolaverardik.

«Avesto» asari kim tomonidan yaratilgani haqida turli xil ma'lumotlar mavjud bo'lib, mashhur sharqshunos olim E.E.Bertelsning fikriga ko'ra, 1278 yilda Rayd Zardusht ibn Bahrom Pajdi degan kishi tomonidan yozilgan «Zardushtnoma» dostonidan ba'zi ma'lumotlarni bilsak bo'ladi: Dostonda Avesto va Zendni Zardusht dunyoga keltirganini, uning tug'ilgani va keyingi hayoti haqida kitob ekanligi haqidagi fikrlar bayon etiladi. Mazkur dostonni 1760 yili mashhur frantsuz tadqiqotchisi Anketil dyu Perron avval lotin tiliga, keyin esa frantsuz tiliga tarjima qilgan. Asarni ingliz tiliga Istvix tarjima qilgan. Keyinchalik asarning F.A.Rozenberg tomonidan qilingan frantsuzcha tarjimasi ham e'lon qilingandir.

An'anaviy hamda keyingi ma'lumotlarga ko'ra zardushtiylik Sharqda qadimgi dinlardan sanaladi. Buning asoschisi Zardusht bo'lib, uning nomi bilan shunday atalgan.

Zardusht taxminan miloddan avvalgi 570- yilda tug'ilgan bo'lib, 77 yoshida, ibodat qilayotgan paytida dushman kohinlaridan biri tomonidan o'ldirilgan.

Zardusht o'sha davrda yakka xudolik g'oyasini ko'tarib chiqadi. Asta-sekin u payg'ambar darajasiga ko'tariladi. U o'zini Axura-mazda, ya'ni, Oliy Tangri elchisi sifatida e'lon qiladi. Zardusht dunyoni yaxshilik va yomonlik dunyosiga bo'ladi. Bu qarama-qarshi kurashdan iborat bo'lib, doimo ular o'rtasida kurash ketadi.

Zardusht dini uning hayotidayoq ko'p o'lkalarga tarqaladi. Ammo Zardusht vafot etganidan keyin zardushtiylik dini yanada keng yoyila boshlaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra «Avesto» asari eramizdan avvalgi VII asrning oxiri va VI asrning boshlarida yaratilgan bo'lib, u uzoq davrlar mahsuli sanaladi, davrlar o'tishi bilan qayta-qayta ishlanadi. Asarning to'liq kitob holida shakllanish davrining barcha manbalarda eramizdan avvalgi birinchi asrga to'g'ri kelishi alohida qayd etiladi.

«Avesto» asari mazmunining o'rganilish tarixi muayyan jarayonni boshidan kechirgan. G'arb, rus va o'zbek olimlari mazkur asar mazmunini har tomonlama tahlil eishga harakat qilishgan. Biz keyingi manbalarga tayangan holda mazkur o'rinda asarning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlari xususida fikr yuritamiz. Chunki «Avesto» asarida inson shaxsining kamolotiga oid ma'rifiy fikrlar ma'lum bir tizimda ifoda etilgandir. Mazkur asar g'oyalari orqali biz qadimgi davrlarda mamlakatimiz hududida yashagan xalqlarning tabiiy, ilmiy, ma'rifiy qarashlari borasidagi qiziqarli materiallarga ega bo'lamiz.

«Avesto» ning vatani Xorazm ekanligini V. G'afurov, H.Hamidovlar yanada aniqroq va ishonch bilan ta'kidlaydilar: Zardusht eramizdan oldin VI asrda yashagan chorvadorlar oilasi Spitama urug'idan bo'lgan. Otasi Paurushaspa, onasi Dugdova ot va tuya boqish bilan shug'ullanganlar. Zardusht ko'p xudolikka sig'inish, qurbonliklar natijasida mollar qirilib ketayotganligini hamda qabilalar o'rtasida nizolarni ko'rib, uning oldini olishni o'ylaydi va o'z ta'limotini boshlaydi Lekin qabila boshliqlariga uning ta'limoti yoqmaydi. Zardusht xudodan kelgan vahiy orqali ko'p xudolikka qarshi yakka xudolikni targ'ib qila boshlaydi, kuchli hokimiyat o'rnatib, er yuzida tinchlikni barqaror etish uchun kurashadi, yaxshilik va ezgulik xudosi Axura-Mazdani himoya qiladi.

Zardushning yangi ta'limotini istamagan qabila boshliqlari uni ta'qib etadilar. U Rayga(Eronga) qochadi va o'z dinini o'sha erda tarkib toptiradi. «Avesto»ni shoh Vishtasp (Gushtasp) ga taqdim etadi. Shoh Vishtasp uning himoyasiga aylanadi.

Adabiyotshunos H.Hamidov Zardushtning shoh Gushtasp vazirining qizi Havoviga uylangani, uch o'g'il-Istavatra, Urvatatnara, Xvarachitra va uch qiz-Freni, Tritii, Pourichista nomli qizlari bo'lganligini keltiradi¹.

Vishtaspning farmoniga ko'ra 1200 bobdan iborat «Avesto»ni oltin taxtga yozdirilib, shoh otashkadasiga topshiriladi.

Manbalarda «Avesto»ning kitob holidagi matni eramizdan oldin o'n ikki ming oshlangan mol terisiga oltin harflar bilan bitilgan keltiriladi. Bu nusxa Iskandar istilosigacha Istahr shahrida saqlangan. Iskandar Istahrni bosib olgach, «Avesto»dagi tibbiyot, nujum, ilmi hikmat sohalariga oid matnlarni yunon tiliga tarjima qilib, boshqasini yoqib yuborishga buyurgan.

Ba'zi tadqiqotchilar eng qadimgi nusxasi 1324-yilda ko'chirilgan bo'lib, Kopengagen kutubxonasida saqlanishini aytishsa (N. Mallaev), boshqalari 1288-yilda eng qadimgi qo'lyozma nusxasi yaratilganini aytadilar (V.A.Livshis).

Avval ta'kidlaganimizdek, zardushtiylik ta'limoti jamg'arilgan kitobi bizgacha ikki nusxada etib kelgan. .

Birinchisi-duolar to'plamidan iborat bo'lib, «Vendidat-sede», «Pok Vendidat» deb ataladi(A.Irisov). Bu kitobga «Yashna»Lar, «Vispered» ham kiritilib, bir butun tarzda shakllangan.

Ikkinchisiga ham birinchisidagi kabi «Vendidat», «Yashna», «Vispered» lar kiritilgan bo'lsa ham, bu kitob tarjima qilinib, sharhlar bilan beriladi izohli tarjimasi «Zand» deb (sharh ma'nosida) ataladi. Shuning uchun ham sharhli nusxasi «Avesto va Zand» yoki «Zand Avesto» deb ataladi.

«Avesto»ning saqlangan qismi to'rtta kitobni tashkil etadi Ularning birinchisi «Vadovdot» deb ataladi. U 22 bobdan iborat bo'lib, xudo Axuramazda bilan payg'ambar Zardushtning savol-javoblari va muloqatlaridan iborat.

Ikkinchi kitob «Yasna» deb ataladi. Uning mazmunini asosan Zardushtning xatlari tashkil etadi. Bundan tashqari, bu kitob 72 ta «Ha» -bashoratdan iborat.

¹Hamidov H. «Shohnoma»ning shuhrati.-T.:O'zbekiston, 1991, 87-88-betlar.

Birinchi bashoratda tabiat va halolliklar hukmdori, hamma narsani biladigan va hamma narsaga qodir xudo Axuramazdaning vahiylari haqligiga iymon keltirishga doir duolar majmuidir.

Uchinchi kitob «Vispart» deb nomlangan bo'lib, 24 bobdan iborat. Uning mazmunini olamni bilishga doir pand-nasihatlar tashkil etadi. Ayni paytda, bu nasihatlar ibodat namozlari yig'indisi, deb ham ataladi.

To'rtinchi kitob «Bundaxash» (Yashta) deb ataladi. «Bundaxash» Axuramazdani zolim kuchlarga qarshi kurashda ulug'lovchi 22 ta qo'shiqdan iborat.

“Qadriyatlar — jamiyatda kishilar o'rtasida obro'ga, e'tiborga, hurmatga, nufuzga, ahamiyatga ega kishilar munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma'naviy boyliklar majmuasi”¹, - degan ta'rif berilgan. Qadriyatlarni bunday ta'riflash uning mohiyatini ancha yorqin ifodallasada, lekin qadriyatlarga berilgan ta'riflar ichida o'zining ilmiyligi bilan boshqa ta'riflardan ajralib turadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, “umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun-qoidalarini, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi. Umuminsoniy qadriyat tushunchasining ob'ektiv asosi ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar, insoniyatning uzluksiz xayotini va turmush tarzini umumlashtiradigan jamiyatdir”.

Insonning jismoniy va ma'naviy pokligi zardushtiylik axloqining eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratguvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta'limotidan ko'rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo'l qo'ymaganlar.

¹ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A. Jalolov va Q. Xonazarov umumiy tahririda. –T.: “Sharq”, 1998, 279-bet.

Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo'lishi kerakligi, u erga mevali daraxt o'tqazish, o'stirish mumkin emasligi, archa, qayrag'och kabi mevasiz daraxt o'stirish kerakligi ta'kidlanadi. «Avesto»da aholining ko'payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog'lab yurish buyurilgan.

«Avesto»da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi Ilon va jom berilgan. Demak, tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma'naviyatimiz qadimiyligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. Kitobda ma'rifatga, ilm va hunarni boshqalarga o'rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

2. Milliy va umumbashariy g'oyalar va ularni targ'ib etishda Zardushtiy ta'limotining asosiy qoidalari

Mehmondo'stlik, bolajonlik, yaqin qo'ni-qo'shnicilik, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, qarindosh-urug'lar, do'stlar bilan yaqin aloqada bo'lish, sahiylik, halol bilan haromni farqlash O'rta Osiyo xalqlarining hammasiga xos bo'lgan ma'naviy fazilatlaridir. Garchand mehmondo'stlik bilan bog'liq udumlar mintaqamizning hamma erida keng tarqalgan yaxshi an'ana bo'lsa ham, ular turli joylarda bir-biridan farq qiladi. Keksalarni, ota-onalarni hurmat qilish ham Markaziy Osiyo xalqlarining o'ziga xos yuksak ma'naviy boyligidir.

Keksalar ko'pni ko'rgan, aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir. Ota-onani hurmat qilish, ularning gapiga, pand-nasihatiga quloq solish ham katta ma'naviy qadriyatdir. Ota-ona hech vaqt o'zining farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Ular hayotda ko'p og'irlik, engilliklarni ko'rgani sababli, farzandlarining istiqbolini ham ulardan ko'ra

ko'proq o'ylaydilar. Ba'zan ota-onaning nasihatlarini noqobil farzandlarga og'irroq tuyuladi. Bu - hayotni chuqur bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga engil-elpi qarashning oqibatidir. Farzandlar ota-onaning qadrini o'zlari ota-ona bo'lganidan keyingina fahmlab oladilar. Bu davr ichida ular ma'naviy kamolotning ko'p imkoniyatlarini qo'ldan boy berib qo'yadilar. Shuning uchun ulkan ma'naviy qadriyat bo'lmish ota-onani hurmat qilish odatini aslo unutmaslik kerak.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e'zozlash boshqa joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, etim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, mehr-muruvvatli bo'lish, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

Ota-onaga bo'lgan hurmat dunyodagi barcha xalqlarda uchraydi. Lekin bizning mintaqamizda bu qadriyatni e'zozlash boshqa joylarga nisbatan ustunroq turadi. Hashar yo'li bilan uy-joy qurishda, uy-joylarni ta'mirlashda bir-biriga yordam ko'rsatish, etim-esirlarning, beva-bechoralarning peshonasini silash, mehr-muruvvatli bo'lish, ularni qarindosh-urug'lar o'z himoyasiga olib, xoru zor bo'lib qolishiga yo'l qo'ymasligi ham mintaqamiz xalqlarining barchasiga xos qadriyatdir.

O'zbekiston suveren demokratik davlat bo'lib, xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsiyaning 13-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublikasi demokratik umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»¹. Demak, demokratik davlatda xalq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo'lib, umuminsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali inson va

¹O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2012. 11-b.

jamiyatning farovonligini, barcha xalqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ammo sho'rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar, bu borada ko'p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi e'tibordan chetda qolar edi. Bunday "tadqiqot"lardan maqsad har bir millatning o'z muayyan tarixiy tajribasi asosida o'z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning e'tiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni "ulug' millat"ning qadriyatlari egallab turardi.

«Bugungi kunda, - mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - an'anaviy qadriyatlarimizni demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir»¹. Shu nuqtai nazardan umumbashariy demokratik tamoyillarni qaror toptirish, ko'p bor ta'kidlanganidek, jamiyatimiz taraqqiyotidagi eng murakkab masalalardan biridir. Ayniqsa, bu uzoq vaqt totalitar tuzum asoratida yashagan sobiq ittifoq makonida, jumladan O'zbekistonda ham uning illatlaridan butkul qutula olmagan jamiyatda yanada murakkabroq kechadi. Ana shu murakkab jarayonni, ijtimoiy-siyosiy larzalarga olib kelmaslikning yo'llaridan biri, qonun ustuvorligi tamoyilidir.

Zardushtiylik ezgulik va yovuzlik hodisalari haqida gap boradi. Axura Mazda o'zining yaxshilikka asoslangan erini (mamlakatni) barpo etsa, Anhra Manu (Ahriman) yomonlikka asos soladi. Anna shu tariqa yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, hayot va o'lim o'rtasidagi abadiy kurash paydo bo'ladi:

«Men – Ahura Mazda – yaratgan ikkinchi sarzamin va go'zal yurt So'g'd diyori edi.

¹Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yO'lida. T.6. –T.: O'zbekiston, 1998. 135-b.

Shundan so'ng, butun borlig'i ajal bilan yo'g'rilgan Ahriman keldi-da, xrafstralar jinsiga mansub Skayatyani yaratdi. U butun podaga o'lim urug'ini sochdi...» («Vandidod», 1-fargard, 5-band).

Barcha yaxshilik, go'zallik va ezgulik homiysi Ahura Mazdaga oltita yorqin kuchlar madad beradi. «Abadiy yaxshilik», «Yaxshi fikr», «Yaxshi tartib», «Munosib qudrat», «Ilohiy tobe'lik», «Sihat-salomatlik», «Abadiylik» kabi tushunchalarning o'z ilohlari bo'lib, Ahura Mazda atrofida yaxshilik urug'ini sepib yuradi. Tabiat voqealari hamda yaxshilik bilan bog'liq turli tushunchalar real ma'no kasb etib, insoniylashgan qiyofdv tasavvur qilingan. Mol, olov, temir, momaqaldiroq, bulutlar, yulduzlar, er, suv hamda o'simliklarning o'z xudolari bo'lgan. Masalan, Mitra nur, haqiqat va poklik xudosi sanalgan.

Yomonlik va razolat xudosi Anhra Manuning ham o'z ishongan ruh va kuchlari mavjud. Anhra Manu iloji boricha Ahura Mazdaga zarar keltirishga, uni koinotdan siqib chiqarishga harakat qiladi. U yolg'onchilik, firibgarlik, ikkiyuzlamachilik, jaholat va qabohat timsoli, unga devlar yordam beradi. Ayniqsa, oltita dev ma'lum: «Yomon fikr»ni ifodalovchi Apa Manna, «so'lish» va «o'lim» devlari Tuarvi va Zariklardir.

Agar Ahura Mazda yaxshi va go'zal narsalarni bunyod etsa, Anhra Manu yomon va xunuk narsalarni yaratadi.

Kurash tabiatda nur va zulmat, borliqda hayot va o'lim, ahloqda yaxshilik va yomonlik, nafasat olamida go'zallik va xunuklik, dinda Ahura Mazda va Anhra Manuni azaliy va abadiy kelishmasligida namoyon bo'ladi.

Axura Mazda barcha yorqinlik, yaxshilik va adolat moyasi, Anhra Manu esa zulmat, zulm, xunuklik va nohaqlik urug'ini sochuvchi. Biri baxt va shodlik belgisi, ikkinchisi razolat va jaholat timsolidir.

Bu ibtidoiy ruhlar egizak bo'lsa, o'z fikrati, kalom iva amallarida bir-biriga teskaridir. Ular – yaxshilik va yomonlik fazilatlarida emas, gunohlarida farq qiladilar.

Bu ikki ruh paydo bo'lgach, hayot va o'limni yaratdilar; oxiratda Ayyor ruh gunohkorlarga, Fozil ruh esa some'larga nasib qilg'ay.

Ular o'rtasidagi farqni ajrata olmaganlar devlar oldiga yugurdilar va Ayyor ruh tuzog'iga ilindilar, g'azab xudosiga uchrashib odamlarni kasalliklar bilan qiynashga tutindilar.

Qachon bu johillar jazolanadi? Qachon seni podshohligingdan yolg'on ketib, haqiqat qaro topadi?

Ana shunda Ayyor ruhning kuni bitadi. Barcha fozil – ruh – Mazda va Haqqoniyatning go'zal maskaniga to'planib, dorilomon yashashga muyassar bo'ladi»¹.

3. Milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida ilk yozma manba «Avesto» g'oyalarining tutgan o'rni

«Avesto»da bayon etilgan yaxshilik ruhi – bu yaratuvchanlik, bunyodkorlik kuchi, yomonlik ruhi esa buzish va buzgunchilikka olib keladi. Yaxshilik – hayot ramzi, erni odamlar, foydali hayvonlar va o'simlik bilan to'ldirish, insoniyat umrini sog'liq, kuch-qudrat, baxt va shodlik, umid va ishonch, go'zallik va ezgu fitrat, to'kin-sochinlik bilan munavvar etmakdir. Yomonlik qurg'oqchilik va ocharchilik, molarining qirilib ketishi, kasallik va ofat, jismoniy va ruhiy buzilishning oqibatidir.

Bu kurash asnosida goho yolg'on va zo'ravonlik, zulmat va betoblik, nohaqlik va firibgarlik ustun kelib qolsa-da, Ahura Mazdaning yorqin kuchlari pirovardida Anhra Manu ustidan g'olib chiqadilar va dunyoda nur yaxshilik, go'zallik va quvonch tantana qiladi.

«Avesto» ta'limotiga ko'ra olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan: jismoniy narsalarda yorug'lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o'lim, ma'naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan

¹ Зелеман К.Г. Всеобщая история литературы. Под редакцией В.Корга, вып. I, СПб., 1880, 174-бет.

qonunsizliklar o'rtasidagi kurashlarda o'z ifodasini topadi. Yorug'lik , ezgulik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qilib, ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo'lgan Axrimon unga qarshi kurashib, odamlarni yomon ish va yo'llarga boshlayveradi. Imon-e'tiqodli odam albatta, ezgulik tarafida turadi. Bu kurashda yorug'likning zulmat, ezgulikning yomonlik ustidan g'alabasiga ishonch bildiriladi.

Axura Mazda odamlarni bir-birlari bilan murosasiz qilib yashashni odat qilishlari, g'arazgo'ylik, hasadgo'ylik, kalondimog'lik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o'zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqda shartnomalarga amal qilish, qarzni vaqtida to'lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo'lish- imonlilik alomatlari ekanligi aytiladi. Imonli odam o'g'irlik va talonchilikdan, begonalarning moludunyasiga ko'z olaytirishdan, o'z-o'ziga xiyonat qilish , ya'ni o'z imoniga xilof ishlardan o'zini saqlay biladigan komil insondir. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko'proq qayg'uring, ya'ni avval ma'naviy dunyoingiz musaffo bo'lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo'lib boraveradi, deyiladi «Avesto»da.

«Avesto» da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-na'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun avvalo mehnat qilishi , o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi.

«Avesto»da : «Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi...», deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish –erdagi yovuzlikni yo'qotishdir, deb qaraladi. «G'alla erdan unib chiqqanda, -deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi...» deb mehnat ulug'lanadi.

Zardushtiylik axloqining asosini - ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar tashkil etadi.

Ezgu fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik , muhtojlik va xavf- xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

Yaxshi so'zlar deganda esa va'dasiga rioya qilish , so'zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo'lishga, qarzini o'z vaqtida to'lash, o'g'irlik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o'zini tiyish va hokazolar tushunilgan.

Yaxshi ishlar deyilganda insonning o'z hatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so'zlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yo'l- yo'riqlarga og'ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshavqat bo'lishni qat'iyman man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiynash- gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqida g'amxo'rlik qilishga, ularga o'z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo'riqlashga da'vat etadi.

«Avesto»da tozalik, poklikka alohida e'tibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos ko'zda suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qat'iyman qoralangan. Naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug', aka-ukaning quda-anda bo'lishi qoralangan.

Hozirgi meditsina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog'lom, to'la-to'kis bo'lib tug'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini to'liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida ma'naviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yo'l bermasligi kerak.

Biron-bir narsa va hodisa, xoh u moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin, qadriyatga aylanishi uchun ma'lum bir vaqt, davr o'tishi kerak. Demokratiyaning milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida shakllanishi ham shunday bosqichlarni bosib o'tgan. Shunga o'tmishdagi barcha narsalar ham milliy qadriyat

hisoblanavermaydi. Uning milliy qadriyatga aylanishi uchun o'zini ko'rsata olishi shart. Demak, biz demokratik jamiyat qurishdagi o'tmishimizdagi barcha narsalarimizni to'laligicha ololmaymiz. Negaki u hamma uchun ibratli emas.

Shu o'rinda Prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi «... o'tmish qadriyatlarga, an'analarga va turmush tarziga betartib ravishda, orqa-ketini o'ylamay qaytish boshqa bir keskinlikka - hozirgi davrni qabul qilmaslikka, jamiyatni yangilash zaruriyatini inkor etishga olib kelishi mumkin» edi. Ayni shu inkor etish onlarida ekstremistik ruhdagi muxolifatning vujudga kelish xavfi tug'ildi. U aslini olganda, ma'naviyatga qarshi muxolifat bo'lishi mumkin edi¹.

“Milliy qadriyatlar – millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatlar. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millatning tanazzuli — milliy qadriyatlarning tanazzulidir. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi”². Negaki, milliy qadriyatlar nafaqat mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biri, balki demokratik, adolatli, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishning asosiy manbai hamdir. Markaziy Osiyo xalqlarining asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan va ko'plab og'ir sinovlarni boshdan kechirgan. Darhaqiqat, mintaqamiz xalqlari 3000 yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtirgan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishda milliy qadriyatlardan tashqari diniy qadriyatlarimizga ham alohida o'rin berilayotganligi tasodifiy hol emas. Chunki milliy va diniy qadriyat o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Ular doimiy ravishda o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi, bir-biri bilan muloqotda, birgalikda mavjud bo'ladi. Milliy va diniy qadriyatlar mutelikdan, fikr qaramligidan qutulish, milliy

¹Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yO'lida. T. 6. –T.: «O'zbekiston», 1998, 126-b.

²Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati (A.Jalolov va Q.Xonazarov umumiy tahririda) — T.:”Sharq“, 19998, 141 b.

o'zlikni anglashga xizmat qilishi bilan ular jamiyatda demokratik umumbashariy tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratadi.

Demokratik qadriyatlarning muayyan sharoitlarda shakllanishi. Ularning mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy shakllarda namoyon bo'lishi. Demokratik jamiyat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mutanosibligi hamda rivoji. O'zbekistonda adolatli demokratik jamiyat barpo etishda milliy qadriyatlarning ma'lum ma'noda umumbashariy ahamiyat kasb etishi.

Xalqlarning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosining ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qildi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov bu borada fikr yuritib, shunday deb ta'kidlaganlar: “Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi”¹. Binobarin, har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotga ta'sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Umuminsoniy va milliy qadriyatlar tamoyillar uyg'unligi qiyosiy tahlili uning inson ma'naviy kamolatining muhim omili ekanligidan kelib chiqishi zarur.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, milliy-ma'naviy tiklanish jarayonida Markaziy Osiyo xalqlarining milliy qadriyatlardagi xos jihatlari, jumladan “Avesto” asarida ilgari surilgan g'oyalardan quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom;
- 2) ajdodlar xotirasiga sadoqat;
- 3) kattalarga hurmat, yoshlarga izzat;
- 4) insoniy muomalada mulozamat;

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bO'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997, 141 b.

5) hayo, andisha, vazminlik, sabr-toqat kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi. Ushbu jihatlarning hammasi Zardushtiylik ta'limoti mujassam. Bugungi kunda uni yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardo'sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giranman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasi edi.

«Avesto» ta'limotidagi an'anaviy qadriyatlar mezonini to'la sof diniy-mifologik mazmun bilan cheklanib qolmasdan, balki shu bilan birga ijtimoiy muhit talablarini ham, tabiiy hodisalarni o'rganish asnosida vujudga kelgan bilimlarga ham suyanadigan dunyoviy harakterga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, yovuz dev Axrimon odamlarga dahshat urug'ini sochish uchun o'n ming turdagi kasalliklarni yuboradi. Unga qarshi ezgulik tangrisi Axura Mazda 9999 ta kasallikning davosini tabiatdagi narsa-hodisalar (jonsiz, tirik va o'simliklar) dunyosining xossalari, sifatlari ko'rinishda odamlar uchun yaratadi. Odamlar tabiatni chuqur o'rganishlari orqali mazkur shifobaxsh xossa va sifatlarni ajratib olib, o'z dardlariga shifo topganlar. Eng muhimi, tabiatni o'rganish orqali ortirilgan bilimlar qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shundan bo'lsa kerak, Otashparastlar qadimda, hatto o'rta asrlarda ham 3 ta narsa bilan mashhur bo'lganlar: 1) sehrgarlik; 2) tabobat ilmidagi; 3) vinochilik bilan shuhrat qozonganlar. Bu fazilat-larning uchalasi asosida ham tabiatni chuqur o'rganish yotganligini ko'ramiz.

Agar Ahura Mazda yaxshi va go'zal narsalarni bunyod etsa, Anhra Manu yomon va xunuk narsalarni yaratadi.

Kurash tabiatda nur va zulmat, borliqda hayot va o'lim, ahloqda yaxshilik va yomonlik, nafosat olamida go'zallik va xunuklik, dinda Ahura Mazda va Anhra Manuni azaliy va abadiy kelishmasligida namoyon bo'ladi.

Axura Mazda barcha yorqinlik, yaxshilik va adolat moyasi, Anhra Manu esa zulmat, zulm, xunuklik va nohaqlik urug'ini sochuvchi. Biri baxt va shodlik belgisi, ikkinchisi razolat va jaholat timsolidir.

Bu ibtidoiy ruhlar egizak bo'lsa, o'z fikrati, kalom iva amallarida bir-biriga teskaridir. Ular – yaxshilik va yomonlik fazilatlarida emas, gunohlarida farq qiladilar.

Bu ikki ruh paydo bo'lgach, hayot va o'limni yaratdilar; oxiratda Ayyor ruh gunohkorlarga, Fozil ruh esa some'larga nasib qilg'ay.

Ular o'rtasidagi farqni ajrata olmaganlar devlar oldiga yugurdilar va Ayyor ruh tuzog'iga ilindilar, g'azab xudosiga uchrashib odamlarni kasalliklar bilan qiynashga tutindilar.

«Avesto» ta'limotidagi an'anaviy qadriyatlar mezonini to'la sof diniy-mifologik mazmun bilan cheklanib qolmasdan, balki shu bilan birga ijtimoiy muhit talablarini ham, tabiiy hodisalarni o'rganish asnosida vujudga kelgan bilimlarga ham suyanadigan dunyoviy harakterga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, yovuz dev Axrimon odamlarga dahshat urug'ini sochish uchun o'n ming turdagi kasalliklarni yuboradi. Unga qarshi ezgulik tangrisi Axura Mazda 9999 ta kasallikning davosini tabiatdagi narsa-hodisalar (jonsiz, tirik va o'simliklar) dunyosining xossalari, sifatlari ko'rinishda odamlar uchun yaratadi. Odamlar tabiatni chuqur o'rganishlari orqali mazkur shifobaxsh xossa va sifatlarni ajratib olib, o'z dardlariga shifo topganlar. Eng muhimi, tabiatni o'rganish orqali ortirilgan bilimlar qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Shundan bo'lsa kerak, Otashparastlar qadimda, hatto o'rta asrlarda ham 3 ta narsa bilan mashhur bo'lganlar: 1) sehrgarlik; 2) tabobat ilmida; 3) vinochilik bilan shuhrat qozonganlar. Bu fazilatlarining uchalasi asosida ham tabiatni chuqur o'rganish yotganligini ko'ramiz.

Agar Ahura Mazda yaxshi va go'zal narsalarni bunyod etsa, Anhra Manu yomon va xunuk narsalarni yaratadi.

Kurash tabiatda nur va zulmat, borliqda hayot va o'lim, ahloqda yaxshilik va yomonlik, nafasat olamida go'zallik va xunuklik, dinda Ahura Mazda va Anhra Manuni azaliy va abadiy kelishmasligida namoyon bo'ladi.

Axura Mazda barcha yorqinlik, yaxshilik va adolat moyasi, Anhra Manu esa zulmat, zulm, xunuklik va nohaqlik urug'ini sochuvchi. Biri baxt va shodlik belgisi, ikkinchisi razolat va jaholat timsolidir.

Bu ibtidoiy ruhlar egizak bo'lsa, o'z fikrati, kalom iva amallarida bir-biriga teskaridir. Ular – yaxshilik va yomonlik fazilatlarida emas, gunohlarida farq qiladilar.

Bu ikki ruh paydo bo'lgach, hayot va o'limni yaratdilar; oxiratda Ayyor ruh gunohkorlarga, Fozil ruh esa some'larga nasib qilg'ay.

Ular o'rtasidagi farqni ajrata olmaganlar devlar oldiga yugurdilar va Ayyor ruh tuzog'iga ilindilar, g'azab xudosiga uchrashib odamlarni kasalliklar bilan qiynashga tutindilar

Bugungi kunda Zardushtiylik ta'limotining milliy va umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qoidalarini talaba-yoshlar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2012.
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. –T.: O'zbekiston, 1998.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.:O'zbekiston, 1997.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., Sharq, 2008.
5. Asqar Mahkam. Avesto. – T., Sharq, 2001.
6. Bekmurodov A.Sh. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovatsiyalar. -T.: TDIU, 2005.
7. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. – Toshkent, «Ijod dunyosi», 2002.
8. Bunyodkor g'oyalar. – Toshkent, «Ijod dunyosi», 2002.
9. Zeleman K.G. Vseobhaya istoriya literaturo`. Pod redaktsiey V.Korga, vo`p. I, SpB., 1880.
10. Insoniyat tarixi: g'oya va mafkuralar tarixidir. – Toshkent, «Ijod dunyosi», 2002.
11. Ishoqov M. Yasht. – T., 2001.
12. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. - Toshkent, «Ijod dunyosi», 2002.
13. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A. Jalolov va Q. Xonazarov umumiy tahririda. –T.: “Sharq”, 1998.
14. Лившиц В.А. Предисловие. «Адиб», 1990.
15. Зелеман К.Г. Всеобщая история литературы. Под редакцией В.Корша, вып. I, СПб., 1880.
16. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent, Fan, 1968.
17. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent, Fan, 1964.

18. Жабборов И., Дрсвянская Г. Духи, святые боги Средней Азии. – Ташкент, 1993.
19. Мэри Бойс. Зороастрийцы. Верования и обычаи. – Москва, Наука, 1988.
20. Hasanov Solijon. «Avesto» - huquq manbai. – Muloqot, 1999.
21. Hamidov H. «Shohnoma»ning shuhrati.-T.:O'zbekiston, 1991.

Quyidagi Internet saytlaridan foydalanildi:

1. [www. gov. uz](http://www.gov.uz)
2. [www. press - service. uz.](http://www.press-service.uz)
3. [www. bilim. uz.](http://www.bilim.uz)
4. [www. philosophy.ru.](http://www.philosophy.ru)
5. [www. filosofiya.ru.](http://www.filosofiya.ru)
6. [www. philosophy.nsc.ru.](http://www.philosophy.nsc.ru)
7. [http G`G` philosophy.albertina.ru.](http://G`G`philosophy.albertina.ru)
8. [www. history.ru.](http://www.history.ru)
9. [www. philosophy.com.](http://www.philosophy.com)